

## RAQAMLI SAN'AT ASARLARI (NFT) LARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Xalimova Odinaxon Azamjon qizi

Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi.

mail: [Odinaxonxalimova88@gmail.com](mailto:Odinaxonxalimova88@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14330759>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli san'at asarlari (NFT) larning huquqiy maqomi, ularni huquqiy tartibga solish masalalari va O'zbekistonda bu sohada mavjud qonunchilik tahlil qilinadi. Shuningdek, turli mamlakatlarda NFTlarni huquqiy tartibga solishga nisbatan yondashuvlar shu jumladan, xalqaro miqyosda ushbu sohani tartibga solish bo'yicha takliflar ham tahlil qilinib o'r ganiladi. Shu bilan birgalikda, NFTlar yordamida raqamli san'at asarlarini sotish va ularga egalik qilishda yuzaga keladigan huquqiy muammolar va mavjud tartibga solish mexanizmlarini hamda NFTlar bilan bog'liq huquqiy xatoliklarni bartaraf etish va ularni tartibga solishning muhimligi haqida ham so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli san'at asarlari, legallashtirish, huquqiy maqomi, soliq, tartibga solish, dolzarb muammolar, tovar belgisi.

### LEGAL REGULATION OF DIGITAL WORKS OF ART (NFT)

**Abstract.** This article analyzes the legal status of digital works of art (NFT), issues of their legal regulation, and the existing legislation in this field in Uzbekistan. Also, approaches to the legal regulation of NFTs in different countries, including proposals for regulation of this field at the international level, are analyzed and studied. Along with this, it also discusses the legal issues that arise in the sale and ownership of digital artworks using NFTs and the importance of addressing and regulating existing regulatory mechanisms and legal errors related to NFTs.

**Keywords:** digital artwork, legalization, legal status, tax, regulation, current issues, trademark.

## ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА (НФТ)

**Аннотация.** В данной статье анализируется правовой статус цифровых произведений искусства (НФТ), вопросы их правового регулирования, а также действующее законодательство в этой сфере в Узбекистане. Также анализируются и изучаются подходы к правовому регулированию НФТ в разных странах, в том числе предложения по регулированию данной сферы на международном уровне. Наряду с этим, в нем также обсуждаются правовые вопросы, возникающие при продаже и владении цифровыми произведениями искусства с использованием NFT, а также важность

*рассмотрения и регулирования существующих механизмов регулирования и юридических ошибок, связанных с NFT.*

**Ключевые слова:** цифровые произведения искусства, легализация, правовой статус, налог, регулирование, текущие проблемы, товарный знак.

### Kirish

Hozirgi vaqtda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida vujudga kelgan yangi hodisalardan biri - bu raqamli san'at asarlari ya'ni NFT (Non-Fungible Token) hisoblanadi.

O'zgarmas tokenlar qisqartmasi bu NFT hisoblanib, ushbu o'zgartirilmaydigan tokenlar bu blokcheyn bilan bog'liq bo'lgan raqamli token va kriptoaktivlarning bir turidir, u haqiqiylikning raqamli sertifikati vazifasini bajaradi. Barcha turdag'i raqamli obyektlarni NFT sifatida sotib olishimiz yoki sotishimiz mumkin. Ularga misol qilib, rasmlar, kitoblar, videolar, boshqa turdag'i intellektual mulklar va 2017-yil noyabr oyida ishga tushirilgan kriptokitlarni ham misol qilib aytishimiz mumkin.

NFTlar san'at asarlari, musiqa, video o'yinlar va boshqa raqamli kontentni ifodalashi mumkin. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, har bir NFT noyob va boshqasi bilan almashtirilib bo'lmaydi. Bu esa ularni an'anaviy kriptovalyutalardan farqlaydi.<sup>1</sup>

NFT bozorining jadal sur'atlari bilan o'sishi va katta miqdordagi mablag'larning aylanishi ushbu sohaning huquqiy tartibga solish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Biroq, NFTlarning nisbatan yangi hodisa ekanligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tufayli, ko'plab mamlakatlarda hali bu borada aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmagan. NFTlar an'anaviy intellektual mulk huquqi tizimida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda va ularni huquqiy tartibga solish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, O'zbekistonda NFTlar bilan bog'liq huquqiy masalalar hali to'liq tartibga solinganicha yo'q.

Ammo, 2018-yil 2-sentabrda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3926-sonli qarori kripto-aktivlar shuningdek, NFTlar uchun ham huquqiy asosni tashkil qilmoqda. Ushbu qarorning 1-qismida kripto-aktivlarni sotib olish, sotish va (yoki) ayriboshlash uchun elektron platformani taqdim etuvchi tashkilot kripto-birja deb hisoblanishi ham belgilab qo'yilgan garchi bizning milliy qonunchiligidan NFTlar aniq belgilanmagan bo'lsada, bular kripto-aktiv yoki intellektual mulk sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumki, intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi qonunlar ham NFTlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

<sup>1</sup> Chason E.D. How NFTs Create Value// SMU Law Review. 2022. Vol. 75. No.2.P. 179-220

## Metodologiya

1. Huquqiy jihatni va hujjatlarni o‘rganish usuli: NFTlar bilan bog‘liq mavjud bo‘lgan milliy qonunchilik Prezident qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, xorijiy davlatlarning huquqiy hujjatlari va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.
2. Qiyoziy tahlil, tizimli yondashuv huquqiy maqomni belgilash metodi: NFTlarning turli davlatlarda huquqiy tartibga solish usullari va tajribalari tahlil qilindi hamda, turli huquq sohalarining o‘rtasidagi bir-biriga o‘zaro uzviy bog‘liqligi va NFTlarga nisbatan huquqiy yondashuvlar qiyoziy va tizimli tahlil qilindi.
3. Keys tahlili: NFTlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan real hayotdagi nizolar tahlil qilindi, blokcheyn texnologiyalari faoliyatini sohasidagi mutaxassislar fikrlari tahlili qilindi.

## Natija

NFTlarning huquqiy maqomi - NFTlarning huquqiy maqomini aniqlash ularni tartibga solishning asosiy masalalaridan biridir. Hozirgi kunda ko‘pchilik mamlakatlar NFTlarni alohida aktiv sifatida tan olishga moyil. Masalan, AQShda Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) ba’zi hollarda NFTlarni qimmatli qog‘ozlar sifatida ko‘rib chiqishi mumkinligini ma’lum qilgan.<sup>2</sup>

NFTlarning huquqiy maqomi haqida xalqaro miqyosdagi yondashuvlar turlicha bo‘lib, quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarida NFTlar asosan qimmatli qog‘ozlar sifatida tartibga solinib kelinmoqda. Yevropa Ittifoqida bular kriptovalyuta emas balkim, ulardan farqli ravishda ko‘riladi va huquqiy tartibga solinadi.<sup>3</sup> Rossiyada esa NFTlar “raqamli huquqlar” tushunchasi doirasida ko‘rib chiqilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Raqamli huquqlar to‘g‘risida”gi federal qonuni NFTlar uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, raqamli san’at asarlarini tartibga solish turli mamlakatlarda turlichadir. Yuqorida davlatlarda ularning tartibga solinish jihatlarini qanday ekani taqqoslandi.

Milliy qonunchiligidizda esa raqamli san’at asarlarining huquqiy maqomi to‘liq ravishda belgilanmagan. “Raqamli aktivlar to‘g‘risida”gi qonun qaysidir ma’noda tartibga solishi mumkindir, biroq, NFTlar haqida alohida qoidalar mabjud emas qaysidir ma’noda bizning mamlakatimizda NFTlarga bo‘lgan tendentsiyalar rivojlanmaganlidir.

Yuqoridagi holatni misol bilan tahlil qiladigan bo‘lsak, hozirgi vaqtida news.blog saytidagi maqolada Starbucks Rewards a’zolari haqida so‘z boradi. Unga ko‘ra Starbucks a’zolari Web3 hamjamiyatini yaratgan bu sodiqlik dasturi bilan ular integratsiyalashgan birinchi kompaniya

<sup>2</sup> U.S. Securities and Exchange Commission. Framework for “Investment Contract” Analysis of Digital Assets. 2019. <https://www.sec.gov/corpfin/framework-investment-contract-analysis-digital-assets>

<sup>3</sup> Journal of International Banking Law and Regulation36(5).

sifatida e'tirof etiladi. A'zolar veb ilovasi ya'ni Starbacks Odyssey ilovasi orqali aynan shu ilova doirasida o'rnatilgan raqamli bozor tufayli "cheklangan nashriyot markalarini" ya'ni NFTlarni sotib olish huquqlariga ega. Bunday imkoniyatdan foydalanish esa quyidagicha: uning barcha a'zolari to'g'ridan-to'g'ri kredit karta orqali xarid qilishi mumkin. Bu degani ular kripto hamyon yoki kriptovalyutalarsiz foydalanish imkoniyatiga edirlar. Bu yaratilgan ilova uning a'zolari uchun qulay imkoniyat yaratib berdi.

Cheklangan nashriyot markalari tobora rivojlanib, ommalashib boraverar ekan ularga bo'lган jamiyatdagи qiziqish ham shu darajada rivojlanib boradi. Bu raqamli san'at asarlarini savdosini darajasini oshirib borqmoqda. Misol uchun, Twitter platformasining asoschisi Dorsining ilk tviti 2.9 million dollarga sotildi.

Shuningdek, trip.com sayti orqali ham istalgan asar, suratlar va uylarni ya'ni raqamli san'at asarlarini sotishingiz mumkin. Bunday imkoniyatlar musiqa olamini ham qiziqtirmay qolmadi.

Ularda ham qiziqish uyg'otib, ushbu tendentsiyaga qo'shilishiga sabab bo'ldi. Bunga, The Weekndning nashr etilmagan musiqasini (NFT) larini 2 million dollarga sotishi yaqqol misolidir.

NFTlar asosan intellektual mulk obyekti bilan uzviy bog'liq bo'lganligi bois ham, bu sohada bir qator huquqiy masalalar yuzaga kelmoqda. Eng asosiy muammolardan biri ham raqamli sanat asarlarini xarid qilish orqali qanday huquqlar qo'lga kiritilishidir. NFTlarni sotib olinganda sotuvchi tomonidan imzolangan sertifikat beriladi bu shuni anglatadiki, to'laqonli sizning san'at asaringiz emasligini tasdiqlashidir. Mutaxassis va ekspertlarning bergen xulosa va fikrlariga ko'ra raqamli san'at asarlari xarid qilinishi avtomatik tartibda asarga nisbatan xarid qiluvchiga mualliflik huquqini bermaydi. Bu degani, raqamli san'at asarini sotib olgan shaxs faqat raqamli tokenga agalik qila oladi xolos. Asarga nisbatan huquqlar alohida shartnoma asosida o'tkaziladi. Bu esa ularning huquqi bo'yicha bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, bu masalada AQSh sudlari bir qancha qarorlar qabul qilgan.

Misol qilib keltirishimiz mumkinki: "Hermes International v. Mason Rothschild" ishida sud NFTlarni yaratishdan tortib sotishga qadar bo'lган jarayonda tovar belgilaridan ya'ni trademarkslardan foydalanish masalasini bayon qilgan.

NFTlarni soliq va moliyaviy tartibga solish masalasi ham mavjud va muhim ahamiyatga molik vaziyatdir. Dunyoning ilg'or mamlakatlari allaqachon NFTlarni soliqqa tortishni qonunchilikda qo'llashni amaliyotga tatbiq etish harakatida.

Masalan, AQSh IRS (ichki daromadlar xizmati) NFTlarni soliqqa tortishda umumiyoq qoidalar qo'llanilishi kerak deb ta'kidlaydi. Unga muvofiq, NFT sotish natijasida olingan foya hisobidan kapital daromad sifatida soliqqa tortilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada ham AQSh kabi tizim lekin biroz farq qiladi. Farqi shundaki, Britaniyada HMRC ya'ni Soliq va bojxona boshqarmasi raqamli san'at asarlarini nomoddiy aktiv kabi ko'rib chiqib, unga ko'ra, olingan foydadan kapital qiymat o'sishi soliq tizimiga tortilishi mumkinligi taklifi berilgan.

Mamlakatimizda esa NFTlarni aniq tartibga solish hali yo'lga qo'yilmaganidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bu bilan bog'liq masalalarda soliqqa tortish belgilanmagan va tartibga solinmaydi. Mening fikrimcha bu sohada qonunchilikni takomillashtirish va ularni rivoji uchun xalqaro hamkorliklar olib borilishi kerak deb o'layman.

NFTlar global harakterga ega ekanligidan kelib chiqib aytishim mumkinki, ularni xalqaro darajada huquqiy tartibga solish dolzarb masaladir. FATF - moliyaviy harakatlar ishchi guruhi ta'kidlashicha: NFTlar virtual aktivlar sifatida ko'rib chiqish mumkin bu o'z navbatida NFTlar bilan bog'liq bo'lgan harakatlarga jinoiy daromadlarni qonuniylashtirishga qarshi kurashish shartligi belgilangan. Sababi bu masalada juda ko'p firibgarliklar ham sodir etilgani aniq faktidir.

Unga misol qilib 2022-yilda "Frosties" NFT loyihasi asoschilari Ethan Nguyen va Andre Llacuna AQShda firibgarlikda ayblangan hamda qamoqqa mahkum etilgan. Ular 1.1 million dollar miqdorida raqamli san'at asarlarini sotib olib so'ng loyihami to'satdan yopib qo'ygani e'lon qilingan. Bu esa NFT sohasida huquqiy tartibga solishni kuchaytirish kerak ekaniga dalolat beradi.

Yevropa Ittifoqida NFTlarni tartibga solish masalasi MiCA qonun doirasida muhokama qilindi. Lekin afsuski, NFT bilan bog'liq masalalar qonun doirasidan chetda qoldirilgan.

### **Muhokama**

NFTlarni xususiyatlari boshqa huquq tizim va sohalardan xususiyatiga ko'ra ancha farq qilishidan kelib chiqib aytish mumkinki, ularni yaxlit bir huquqiy katagoriyalarga moslashtirish ancha murakkab jarayondir. O'z navbatida esa bu murakkab jarayon yangi huquqiy terminlar hamda mexanizm shuningdek, prinsip, tamoyillarni ishlab chiqish kerakligini talab etadi. Ya'ni mualliflik huquqini himoya qilish, ularni litsenziyalash masalalari kabi ko'plab savollar o'z yechimini talab etadi. Hozirgi vaqtida NFTlarni tartibga soliq to'liq nazoratda emas, himoya qilinmaydi. Sababi sotuvchining shaxsi tasdiqlanmaydi shu tufayli ham, uning asl egasi kim ekanligini aniqlash nizolarni yuzaga keltiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, NFTlarni soliqqa tortishda ham bir qancha muammolar mavjud. NFTlarni huquqiy tartibga solish masalasi zamонавий huquq tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud huquqiy mexanizmlar NFTlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab ololmayapti. Bu esa bir qator muammolarni, jumladan huquqiy noaniqlik, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish qiyinchiliklari va soliq masalalarini keltirib chiqarmoqda. NFTlarni samarali tartibga solish uchun kompleks yondashuv

talab etiladi. Bu maxsus qonunchilik bazasini ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, texnologik yechimlardan foydalanish va bozor ishtirokchilarini o'qitishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv NFT bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish imkonini beradi. Kelajakda NFTlar va boshqa raqamli aktivlarning rivojlanishi davom etishi kutilmoqda. Shu sababli, huquqiy tizimlar bu o'zgarishlarga moslashishi va yangi texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi zarur. Bu nafaqat NFTlar, balki kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lган yangi turdag'i raqamli aktivlarni ham samarali tartibga solish imkonini beradi.

NFTlarni baholash tartibi va ularni soliqqa tortish uchun aniq qiymat yoki ko'rsatkich belgilanmagan. Bu shundan darak beradiki, soliq qonunchiligiga o'zgartirish kiritish va unga moslashtirish kerak ekanligiga dalolatdir. Xalqaro miqyosda esa, yagona tizim ishlab chiqarish ham muammo tug'dirishi tabiiy hol albatta. Yagona tizim joriy etilmasa davlatlar o'rtasida ko'plab huquqiy ziddiyatlar uchraydi. NFT bozorini esa tartibga solish va rivojlanishi barqarorlashmaydi. Shunday ekan, bunday muammolarni hal etish yuzasidan xalqaro darajada yaxlit yondashuv mavjud bo'lishi kerak deb hisoblayman.

NFTlarga taalluqli bo'lган muammolar ko'п va uning firibgarlikni ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida firibgarlikning bir nechta turlarini ko'rishimiz mumkin.

Biroq, MSIL kompaniyasining ijrochi direktori Syedul Rahmanning fikricha: "Ko'pincha NFTlar firibgarlik emas edi va ularning orqasida haqiqiy va foydali texnologiyalar bor edi. Biroq, NFT loyihibarida katta miqdorda pul yo'qotganlar haqida qo'rqinchli hikoyalari tez-tez eshitildi. Bozordagi beqarorlik opportunistik firibgarlar uchun eshikni ochadi va ularga osmonga ko'tarilgan qiymatdan odamlarni pullarini ajratishga ko'ndirish uchun rag'bat sifatida foydalanishga imkon beradi. Bunday faoliyat NFTlarning hozirgi qiyinchiliklarida hech bo'limganda qisman rol o'ynadi" deb izohlaydi ijrochi direktor. Qaysidir ma'noda to'g'ri ammo, huquqiy tartibga solinmas ekan noqonuniy hatti-harakatlar va huquqbazarliklar yuzaga kelaveradi. nftevening.com tomonidan o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, NFTlarning 96% hozirda "o'lik" deb hisoblanadi va ularning rentabelligi va qisqa umr ko'rish muddati yo'qligini ta'kidlaydi. Demak, NFT qachonki yagona huquqiy tizim asosida tartibga solinib, kamchiliklar bartaraf etilsagina davomiy bo'lishi mumkin aks holda, u uzoqqa bormaydi.

### Xulosa

Raqamli san'at asarlari va NFTlarni huquqiy tartibga solish masalalari hozirgi kunda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohani tartibga solishda aniq qonunlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish raqamli aktivlarni yaratish va sotishda huquqiy xavfsizlikni ta'minlaydi va muhofaza etadi. Shu bilan birgalikda, san'at bozorini rivojlanishiga ham hissa

qo'shadi. Bularni taribga solish va ijrosini ta'minlash maqsadida vakolatli organlar ham belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. NFTlarni legallashtirish mumkin. Natijada NFT bozorining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish va inson va fuqarolarning huquqlarini muhofaza etishga xizmat qiladi va NFT texnologiyalarini global miqyosda tartibga solish uchun xalqaro huquqiy standartlar ishlab chiqilishi kerak. Bu NFTlarni sotishda va ularga egalik qilishda yuzaga keladigan nizolarni oldini olishga yordam beradi. Xalqaro miqyosda birlik yaratish, raqamli san'at sohasining rivojlanishiga yordam beradi.

Texnologik yechimlardan foydalanish esa blokcheyn texnologiyasi asosida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va NFTlar bilan bog'liq operatsiyalarni kuzatish tizimlarini joriy etish mumkin. NFTlar bilan bog'liq huquqiy masalalar bo'yicha bozor ishtirokchilarini o'qitish va ularga ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. Bu ularning huquqiy xavf-xatarlarini kamaytirish va bozorning shaffofligini oshirish imkonini beradi.

## REFERENCES

1. Fairfield J. Tokenized: The Law of Non-Fungible Tokens and Unique Digital Property// Indiana Law Journal. 2021. Vol. 97. No. 4. P. 1261-1309
2. Chason E.D How NFTs Create Value // SMU Law Review. 2022. Vol. 75. No. 2. P. 179-220
3. U.S. Securities and Exchange Commission. Framework for **"Investment Contract"** Analysis of Digital Assets. 2019
4. Europen Commission. Proposal for a Regulation of the Europen Parliament and of the Council.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3926-sonli 02.09.2018 yil Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi **"Kripto aktivlar to'g'risida"**gi qonun.
7. **Foydalilanigan saytlar.**
8. <https://www.rahmanravelli.co.uk/expertise/nfts-non-fungible-tokens-risks-regulation-and-the-law/articles/nft-problems/>
9. [https://www.trip.com/?Allianceid=3877322&SID=22746913&trip\\_sub1=&trip\\_sub3=D582408&gad\\_source=1&gclid=Cj0KCQjw4Oe4BhCcARIsADQ0csmiEIvr5t7iwWvaq6KXtByFHuc0PYyj9zd1Q\\_gbyp3xF3\\_k0Ee5lFgaAmMIEALw\\_wcB](https://www.trip.com/?Allianceid=3877322&SID=22746913&trip_sub1=&trip_sub3=D582408&gad_source=1&gclid=Cj0KCQjw4Oe4BhCcARIsADQ0csmiEIvr5t7iwWvaq6KXtByFHuc0PYyj9zd1Q_gbyp3xF3_k0Ee5lFgaAmMIEALw_wcB)
10. <https://www.nftevening.com>
11. <https://www.investopedia.com/non-fungible-tokens-nft-5115211>
12. <https://www.news.blog>